

346:2 KO'RINISHDAGI IFODALAR

Rustamova Rano Umedovna

*Samarqand viloyat Samarqand shahar 34-umumiy o'rta ta'lim maktabining
boshlangich sinf o'qituvchisi*

Darsning maqsad va vazifalari:

Ta'limiy: O'quvchilarni 346:2 ko'rinishdagi ifodalarni bilan tanishtirish, shunday ko'rinishdagi ifodalarni yecha olishga o'rgatish, matematik savodxonligini oshirish;

FK-1: matematika mazmuniga oid fanga oid kompetensiya

Tarbiyaviy: O'quvchilarni birdamlik, kattalarga, bir-birlariga hurmat tuyg'ularini tarbiyalash, matematika fani orqali hayotni to'g'ri tasavvur eta olishni shakllantirish, fanga bo'lgan qiziqishlarini orttirib borish, tabiatga mehr tuyg'ulari o'stirish;

TK-4: o'zini tutish, to'g'ri qaror qabul qila olish.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarni bilimli, zukko bo'lishga, erkin va mustaqil fikrlashga o'rgatish. **TK1:** so'z va gaplarni bog'lagan holda o'z fikrini aniq va ravshan ifodalay olish. **TK-3. Ta'lim jarayonida faol ishtirok etish**

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi

Metod: "Men sizga ishonaman", "Mohir hisobchi", "Kim chaqqon" o'yinlari, tushuntirish, savol-javob, she'riy topishmoq, aqliy hujum, yozma.

Turi: yangi bilim beruvchi.

Shakl: jamoa, guruh bilan ishlash, individual ishlash.

Jihoz: darslik, darsga oid ko'rsatmali plakatlar, rasmlar, jadval, chizma, chizg'ich, qalam, prezentatsiya, kompyuter.

Kutilayotgan natija

Dars yakunida o'quvchilar yozma bo'lishga doir ifodalarni yechishni, masala shartini to'g'ri tushunish va uni yechish, to'g'ri hisoblash haqidagi bilimlarni egallaydilar.

Darsning bosqichlari jadvali:

Tashkiliy qism.	5
	daqiq
O'tilgan mavzularni takrorlash.	10
	daqiq
Yangi mavzuning bayoni. Prezentsiya, darslik, ko'rgazmalar bilan ishlash.	15
	daqiq
O'yin mashqlari orqali mavzuni mustahkamlash.	10
	daqiq
Dars yakuni va o'quvchilarni baholash.	3
	daqiq
Uyga topshiriq berish.	2
	daqiq

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism

O'qituvchi: Partamizga o'tirib, gavdani tik rostlaymiz.

Diqqat ila bugungi, darsimizni boshlaymiz.

-Navbatchi axboroti tinglanadi.

O'qituvchi: Kim sinfda navbatchi?

Navbatchilar: Men sinfda navbatchi

Axborotni tinglang-chi!

Sinfda 36 o'quvchi,

Bir-biridan a'lochi..

22 tasi mard o'g'lon

O'qishda, ishda chaqqon.

14 tasi qiz bola

Orasta va sarishta

Ular doim faollar,

Bugun darsga __ tasi tayyorlar!

O'qituvchi: -Ayting oy, kun sanani

Jalb etaylik hammani.

Navbatchilar: -Bugun yigirma to'qqizinchi oktabr , kuz faslining 2-oyi, haftaning juma kuni.

Matematika o'quvchi:

Tinglab mening so'zlarim, olgansiz saboqlarim,

Zamonlarning zamonida,

Rivojlangan , yetilgan.

Bobolarning merosidan,

Bizga taqdim etilgan.

Buxoriy, At-Termiziy,

Ulug`beklar boyitgan.

Qarang bu fan bizga,

Olam sirin tanitgan

O'qituvchi: Bu qaysi fan?

O'quvchi: -Matematika

O'qituvchi: Matematika darsini sonlarsiz tasavvur eta olmaymiz. Sonlarni asoschisi kim bo'lgan ekan?

O'quvchilar: Buyuk bobomiz Al Xorazimiy.

Al-Xorazimiy haqida ma'lumot beriladi.



Al-Xorazmiy matematika rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan buyuk olimdir. U 0 dan 9 gacha bo'lgan raqamlardan foydalanilsa, sonlarni o'nlik sanoq sistemasida xona birliklariga ajratib yozilishi mumkinligini ko'rsatgan.

To'rt amalni bajarishda bunday yozuvdan foydalanishning afzalliklarini tushuntirib bergan.

O'qituvchi: Matematika fanidan qani nimalarni bilasiz?

O'quvchi: Hisob-kitob ilmini,
O'rgatar matematika.
Qo'sh, ayir, bo'l, ko'paytir,
Bu oddiy arifmetika.

-**“Arifmetika”**-grekca “arithmos” so'zidan olingan bo'lib, son san'ati, degan ma'noni bildiradi.

-**“Nol”**-atamasi lotincha “nullus” so'zidan kelib chiqqan va o'zbekcha hech qanday, bo'sh degan ma'nolarni bildiradi.

-**“Natural”**-atamasi lotincha “naturalis” so'zidan olingan bo'lib, o'zbek tilida haqiqiy yoki tabiiy degan ma'noni bildiradi.

-**“Matematika”**-atamasi grekcha “mathema” so'zidan olingan bo'lib, o'zbekcha fan degan ma'nolarni bildiradi. Buni Pifagor kiritgan.

Dars shiori: O'rgan -o'rgat shiori,
Boshlang'ichdir poydevori.
Sog' tanda ,sog'lom aql,
Biz bunga doim kafil!

Dars davomida rioya qilishi lozim bo'lgan qoidalar belgilanadi.

Darsning oltin qoidasi:

- *Diqqat bilan tinglash;
- *Darsda faol qatnashish;
- *Vaqtdan unumli foydalanish;
- * Do'stining fikrlarini qadrlash;
- * Asosli fikrlash;
- * Hamkorlikda ishlash.

II.O'tilgan darsni so'rash.

O'qituvchi: Bugun oddiy dars emas,
Balki sinov darsidir.
O'tib olsak sinovdan,
Bu hammadan yaxshidir.

Endi esa o'tgan mavzuni takrorlab olamiz. "Men sizga ishonaman" o'yini orqali uy ishini tekshirish.

7-misol.

$$\begin{array}{cccc} 62 : 2=31 & 224 : 2=112 & 636 : 3=212 & 488 : 4=122 \\ 84 : 4=42 & 642 : 2=321 & 963 : 3=321 & 884 : 4=221 \end{array}$$

Haydovchining masalasi .

8-masala. Avtomobilning spidometri 540 km ni ko'rsatmoqda. 3 soat yurgandan so'ng spidometr 750 km ni ko'rsatsa, avtomobil 1 soatda necha km yurgan?

Ko'rsatmoqda-40km ni

Ko'rsatsa-750km ni

3soatda-?km

1soatda -?km

Yechish:

1) $750-540=210(\text{km}) - 3 \text{ soatda}$

2) $210:3=70(\text{km}) - 1$ soatda

Javob: 1 soatda 70 km yurgan.

III. Yangi mavzu bayoni

346:2 ko‘rinishdagi ifodalar.

Yechilishini tushuntiring: $346 : 2 =$

3 ni 2 ga bo‘lib, bo‘linmaga 1 yoziladi. Qoldiq 1 yoniga 4 tushiriladi. 14 ni 2 ga bo‘lib, natija 7 yoziladi. 6 tushiriladi va 2 ga bo‘lib, natija 3 yoziladi.

Pullar orqali bo‘lish amalini tushuntirib berish.

Iqtisodiyotga bog‘lash, hayotda qo‘llay olishni o‘rgatish.

Yangi mavzuga tushunib oldingizmi?

Unday bo‘lsa 2-misolni mustaqil bajara olamizmi? Yashang!

1-misoldagi ifodalarni ”Mohir hisobchi” o‘yini orqali yechamiz.

1-misol

$$56 : 2=28$$

$$328 : 2=164$$

$$456 : 3=152$$

$$684 : 4=171$$

$$87 : 3=29$$

$$742 : 2=371$$

$$879 : 3=293$$

$$955 : 5=191$$

2-masala. Bog‘bon amakining masasi.

Bog‘ barpo qilish uchun 976 tup olma ko‘chatini olib kelishdi. Har bir qatorga 8 tadan ko‘chat ekildi. Ko‘chatlar necha qatorga ekilgan?

Olib kelindi – 976 tup olma ko‘chati

Ekildi - 8 tadan har 1 qatorga

Ekilgan - ? ta qatorga

Yechish:

$$976:8=122(\text{ta})$$

Javob:122 ta qatorga ekilgan

3-topshiriq

Taqqoslang:

$5 \text{ kg} \square 4 \text{ kg}$

$582 \text{ kg} \square 584 \text{ kg}$

$5 \text{ cm} \square 4 \text{ dm}$

$8 \text{ mm} \square 6 \text{ mm}$



$8 \text{ mm} \square 7 \text{ dm}$

$234 \text{ mm} \square 263 \text{ mm}$

Dam olish daqiqasi:

IV. Yangi darsni mustahkamlash:

4-topshiriqni 2 guruhdan 3 nafardan o'quvchi bajaradi. "Kim chaqqon"



$265 \cdot 3 = 795$

$963 : 3 = 321$

$588 : 6 = 98$

$147 \cdot 2 = 294$

$795 - 98 = 697$

$321 + 294 = 615$

5-topshiriq. Oshpazning topshirig'i. "Aqliy hujum" metodi

Azizjon pitsani 10 bo'lakka bo'ldi. So'ng bir bo'lagini yana 3 bo'lakka bo'ldi. Keyin yana ikki katta bo'lakni olib, har birini 3 bo'lakka bo'ldi.

Hammasi bo'lib pita necha bo'lakka bo'lindi?

Bu topshiriqni bajarish uchun o'quvchilar qirqib ko'rsatib berish yordamida yechiladi.

$$10 \text{ bo'lak} - 3 \text{ bo'lak} = 7 \text{ bo'lak}$$

$$3 \text{ bo'lak} * 3 \text{ bo'lak} = 9 \text{ bo'lak}$$

$$7 \text{ bo'lak} + 9 \text{ bo'lak} = 16 \text{ bo'lak}$$

Javob: 16ta bo'lakka bo'lindi.

V.O'quvchilarni baholash

Darsda faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantirish, baholash.

VI. Uyga vazifa: 53-betdagi 6-misol, Duradgorning topshirig'i 7-masala.

O'qituvchi Mana, o'quvchilar, dars tamom bo'ldi,

Javobingiz tinglab ko'nglim to'ldi.

Endi tanaffusga chiqingiz shodon,

Ertagacha xayr, bo'lingiz omon!